

Azamatova Gulruh Islom qizi

«Tashkent International University of Education»

xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada muallif Karl Popper ta'lism falsafasining ijtimoiy-falsafiy asoslarini tahlil qilgan. Ta'lism fenomenining Popper tomonidan tushunilishi aynan uning ijtimoiy-falsafiy nazariyasiga asoslanadi va bu yerda asosiy yondashuv ijtimoiy injeneriya, eng muhim tushuncha erkinlik hisoblanadi. Aynan ushbu yondashuv asosida ta'lism tizimi isloh etilishi va taraqqiyoti ta'minlanishi mumkin, chunki ta'lism tizimi nafaqat mutaxassislarni, balki barkamol shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi.

Kalit so'zlar: shaxs, inson, jamiyat, ta'lism, ochiq jamiyat, tanqidiy ratsionalizm, ijtimoiy injeneriya.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФИЛОСОФИИ ОБРАЗОВАНИЯ КАРЛА ПОППЕРА

Азаматова Гулрух Ислом кизи

Преподаватель международного университета «Tashkent International University of Education»

Аннотация: В статье автор анализирует социально-философские основания философии образования Карла Поппера. Понимание Поппером феномена образования осуществляется через призму его социально-философской теории и здесь основным подходом является социальная инженерия, а важнейшим понятием является свобода. Именно на основе этого подхода возможно реформирование системы образования и обеспечение ее развития, так как система образования готовит не только специалистов, но и всесторонне развитию личность к социальной жизни.

Ключевые слова: личность, человек, общество, образование, открытое общество, критический рационализм, социальная инженерия.

SOCIAL AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF KARL POPPER'S PHILOSOPHY OF EDUCATION

Azamatova Gulrukhan Islom kizi

Lecturer of the Tashkent International University of Education

Abstract: In the article, the author analyzes the socio-philosophical foundations of Karl Popper's philosophy of education. Popper's understanding of the phenomenon of

education is carried out through the prism of his socio-philosophical theory, and here the main approach is social engineering, and the most important concept is freedom. It is on the basis of this approach that it is possible to reform the education system and ensure its development, since the education system prepares not only specialists, but also comprehensively prepares the individual for social life.

Keywords: personality, person, society, education, open society, critical rationalism, social engineering.

Bugungi kunda ta'lim sohasining jadal rivojlanishi har qanday mamlakatning tarqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega, chunki aynan ushbu soha nafaqat bo'lajak malakali mutaxassislarni, balki umuman o'z fuqarolik nuqtai nazariga ega insonlarni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Ya'ni texnogen sivilizatsiya sharoitida ta'lim – bu ham o'qitish, ham tarbiyani sintezlashuvchi shaxsni shakllantiruvchi platforma [1, 90]. Shu bilan birga, ta'lim tizimining ijtimoiy-falsafiy tahlili ta'lim makonining global miqyosda integratsiyasining tamoyillariga mos keluvchi turli qadriyatlarning o'ziga xosligini ko'rsatadi [2, 160]. Ushbu qadriyatlardan biri, bizning nazarimizda, aynan erkinlik fenomenidir, chunki aynan erkin sharoitlarda haqiqiy ta'lim olinishi mumkin. Shu nuqtai nazardan biz 20 asr G'arb falsafasining yirik namoyondalaridan biri Karl Raymund Popperning ta'lim falsafasining ijtimoiy-falsafiy asoslariga e'tibor qaratamiz, zero bu mutaffakir uchun ta'lim fenomeni ochiq jamiyat rivojining asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi [3, 29].

Karl Popperning ijtimoiy falsafsi uning ochiq jamiyat nazariyasida aks ettirilgan. Lekin «ochiq jamiyat» tushunchasi ilk bor frantsuz faylasufi Anri Bergson tomonidan ishlatalgan. Bundan tashqari, Bergson «ochiq axloq» va «ochiq din» tushunchalarini ham kiritgan. Ushbu tushunchalarning barchasi Bergson qarashlarida aynan diniy, irratsional va intuitivistik tusga ega, chunki mutafakkir aynan G'arb irratsionalizmining katta namoyondalaridan biri. Popper nazariyasida esa «ochiq jamiyat» tushunchasi asosida tanqidiy ratsionalizm usuli turadi. Ushbu usulga ko'ra har qanday bilim ilmiy mavqeiga ega bo'lishi uchun falssifikatsiya qilinishi, ya'ni rad etilish kerak. Agarda rad etilmasa, ushbu bilim ilmiy xarakterga ega emas. Masalan, psixoanaliz nazariyasida ilgari surilgan kontseptsiyalar falssifikatsiya qilinishi mumkin emas, chunki insonning har qanday xulq-atvorini psixoanaliz yordami tushuntirish mumkin. Ya'ni, psixoanaliz ilmiy xarakterga ega emas, chunki har qanday vaziyatni u doimo u yoki bu vaziyatni izoh topadi [4, 5]. Faqat haqiqiy ilmiy bilim falssifikatsiya qilinadi, chunki ilm-fan rivojida nazariyalar bir-birini almashтирib turadi. Xuddi shunday jamiyat rivojidagi turli nazariyalar ham statik xarakterga ega emas, ular o'zgarib turadi.

Mutafakkirning nazariyasiga ko'ra, ochiq va yopiq jamiyat o'rtasida muhim farq bor – bu erkinlik fenomeni. Aynan ochiq jamiyatda erkinlik – bu oliy qadriyat, yopiq jamiyat esa bu qadriyatdan faqatgina o'z manfaatlaridan foydalanadi. Bunga Popper Aflatunning ijtimoiy falsafasini misol qilib keltiradi. Xususan, faylasuf ta'kidlashicha,

Aflatun erkinlikni qonunsizlik bilan aynanlashtiradi, uni qattiq tanqid qiladi [5, 35]. Nega buyuk yunon faylasufi bunday fikrga kelgan? Sababi, uning ijtimoiy nazariyasida jamiyatni boshqarish uchun kuchli davlat kerak, lekin bunday kuchli davlat mavjudligi totalitar tizimga olib keladi, bunday sharoitlarda erkin inson umuman kerak emas, chunki uni boshqarib bo'lmaydi. Aflatunni Popper "birinchi totalitarist" deb ataydi [5, 28] va bu bejiz emas, chunki yunon faylasufining jamiyat nazariyasida erkinlik uchun joy yo'q. Aynan Aflatunning ijtimoiy falsafasi misola biz yopiq jamiyatni kuzatishimiz mumkin. Yopik jamiyatni aynan ta'qiqlar yoki "tabu"lar boshqaradi. Lekin ochiq jamiyatda boshqaruv asosini ijtimoiy injeneriya tashkil etadi. Ushbu yondashuvning o'ziga xosligi jamiyat rivojida qandaydir qonuniyatlar emas (masalan, marksizmdagi moddiy ishlab chiqarish), balki inson va uning faoliyati tashkil etadi. Ijtimoiy injeneriya ilmiy asoslarda turib, har qanday ijtimoiy o'zgarishlar aynan insonlar irodasiga va ratsional yondashuvga asoslanadi. Bu ham Karl Popperning ta'lim falsafasida o'z aksini topgan. Xususan, mutafakkirning fikricha, Suqrotning mayevtikasi – bu egalitar mazmunga ega o'ziga xos ta'lim metodologiyasi [4, 148]. Ushbu metodologiya yordamida kishiga savollar berilib, u bilan bahs-munozara olib boriladi va natijada u fikrlashga undaladi. Bundan tashqari, inson o'z-o'zini tanqid qilishga ham o'rGANADI. Mayevtika metodologiyasining markazida muloqot (dialog) turadi. Ta'lim muhitida o'qituvchi o'z o'quvchilari bilan bahs-munozara olib boradi, ularga har qanday ma'lumotga shubha bilan yondashishni, haqiqatni izlashga o'rgatadi. Lekin bu izlanuv ratsional bazaga asoslanadi, ya'ni aniq qonuniyatlar va tabiiy sababiyatlarga.

Ijtimoiy injeneriya texnologiyasi Popperning ta'lim falsafasida ham o'z aksini topadi. Masalan, olim Aflatunning nafaqat ijtimoiy falsafasi, balki ta'limga falsafiy yondashuvini ham tanqid qiladi. Popper fikricha, har qanday inson boshqaruv ostida bolishi lozim va buni davlat institutlari amalga oshiradi [5, 148]. Ammo bu sharoitda ta'lim tizimining asosiy vazifasi – boshqaruvchilarni tayyorlash. Bu jarayon tashkil etilishi uchun davlat ta'lim tizimini to'lig'icha nazorat qilishi va tartibga solishi lozim. Bunday ta'lim tizimi mafkuraning qobig'iga qirib qoladi va asosiy funktsiyasidan, ya'ni insonning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, uning erkin va tanqidiy fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirishdan to'liq voz kechadi. Ta'lim tizimiga nisbatan bunday yondashuv aynan yopiq jamiyatga xos. Ijtimoiy injereniya yondashuvi esa ta'lim tizimida o'quvchi va umuman tahsil oluvchilarning erkin ta'lim olishi, o'quv dasturlar va rejalar, umuman ta'lim tizimi ularning ehtiyojlariga moslashishini talab qiladi. Bundan tashqari, Popperning ijtimoiy injereniyasi tor doiradagi mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan, chunki aynan bu orqali inson o'zining muayyan sohadagi bilim va ko'nikmalari, malaka va qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantira oladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ijtimoiy injeneriya ta'lim kontekstida sinov va xato usuli misolida ham namoyon bo'ladi. Ya'ni ta'lim olish jarayoni mazmunan sinov va xatolar jarayonidir [6, 243]. Xuddi shunday jamiyatni boshqarish ham sinov va xatolar orqali amalga oshiriladi. Mazkur usul ta'lim tizimi boshqaruvida ham o'z aksini topadi. Xususan, maktab rahbarining asosiy vazifasi faqatgina ta'lim

tashkilotinin boshqarish emas, balki o'z o'qituvchilariga avtonomlikga sinov va xatolar usuli orqali o'rgatish [7].

Shunday qilib, aytishimiz mumkinki, K.Popperning ta'lif falsafasi bevosita uning ijtimoiy-falsafiy nazariyasiga asoslanadi, deb aytishimiz mumkin. Mutafakkirning tanqidiy ratsionalizmi alohida ta'lif nazariyasiga aylangan va neopozitivizm hamda primordializmga qarshi turadi. Bu ma'noda tanqidiy ratsionalizm ijtimoiy injeneriya bilan birga ta'lif tizimining tubdan boshqacha ko'rib chiqadi va yangicha yondashuvlarni taklif qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов Р. Экзистенциализм как теория обучения // MMIT Proceedings, 2023. – С.90-94.
2. Сайдова К. Социально-философские перспективы развития современного образования // MMIT Proceedings, 2023. – С.159-161.
3. Бекбаев Р. Феномен образования в контексте теории открытого общества Карла Поппера // MMIT Proceedings, 2023. – С.29-32.
4. Popper K.R. Conjectures and Refutations. The Growth of Scientific Knowledge. – London: Routledge and Kegan Paul, 1972.
5. Popper K.R. The Open Society and its Enemies. The Spell of Plato. Vol 1. – London: Routledge and Kegan Paul, 1947.
6. Popper K.R. Objective Knowledge: An Evolutionary Approach. – Oxford: Oxford University Press, 1979.
7. Chiptin S. Leading School Improvement: Using Popper's Theory of Learning // Open Review of Educational Research, 2016, №3:1, pp.190-203.